

**AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRI ME'MORCHILIGINING  
RIVOJLANISH TARIXIDAN.**

Xamidova Shoira Rasulovna.

*Jizzax Davlat Pedagogika Universiteti Tarix fakulteti 2-bosqich*

*magistranti*

**Mirkomilov Baxtiyor Mirkomilovich**

*Ilmiy rahbar: prof.v.b.*

**Annotatsiya:** *mazkur maqolada Amir Temur va Temuriylar davri me'morchilik namunalarining bezash uslubi, turlari, ularning takomillashuvi, shuningdek Samarqand shahrining o'sha davrdagi qiyofasi haqida so'z yuritiladi.*

**Kalit so'zlar:** Amit Temur, Mirzo Ulug'bek, Samarqand, Shaxrisabz Oqsaroy, Ko'ksaroy, Bo'stonsaroy, Klavixo, me'morchilik, koshinkorlik.

Amir Temur va Temuriylar davrini ba'zan temuriylar Renessansi deb ham atashadi.<sup>10</sup> Chindan ham O'rta Osiyo zaminidagi ilm-fan, sheriyat, san'at rivojida atrof borliqqa nisbatan kuchli qiziqish aks etdi. Shoirlar, muarrihlar, tasavvuf yo'nalishidagi mualliflarning ijodida insonparvarlik g'oyalari yaqqol namoyon bo'ldi.

O'z sohasida kamolotga intilish Temur va temuriylar davri hunarmandchiligining asosiy xususiyatiga aylandi. Bu ayniqsa me'morchilikda yaqqol namoyon bo'ldi.

Temur uchun uning topshirig'iga ko'ra barpo etilgan inshootlarning ulug'vorligi siyosiy sohadagi vazifalardan biri edi. U Oqsaroy peshtoqiga bitilgan "Qudratimizni ko'rmoq istasang - binolarimizga boq!" degan yozuvda aniq ifodasini topgan. Samarqandda va Movarounnahrning boshqa shaharlarida Temur davrida amalga oshirilgan qurilish beqiyos ko'lam kasb etdi. Bunda avvalambor shahar qurilishida istehkomlar barpo qilish, shoh ko'chalarni tartibga solish, aniq uyushtirilgan.

Temur va Temuriylar davlatida me'morchilik avvalgi davrdan ko'p narsa olgani holda o'z taraqqiyotining yangi yuqori bosqichiga ko'tarildi. Bunga yordam bergen omillar esa yangi, goho mahobatli binolarni bunyod etish, ulkan hududning turli chekkalaridan keltirilgan me'morlarning ijodiy ko'chlarini yagona davlat doirasida birlashtirish va, nihoyat, "davr ruhi" - bir qator tadqiqotchilarni "Temuriylar Renessansi" to'g'risida so'z yuritishga undagan o'ziga xos jihatlardan iborat bo'ldi. Bu atama bahsli, albatta, zotan, Yevropadagi Uyg'onish davrining mafkuraviy nuqtai nazarları O'rta Sharqdan farqlanadi. Lekin tug'ilib kelayotgan insonparvarlik ikki tomonga xos xususiyat edi. Musulmon Sharqida shariat belgilab qo'ygan turmush qonun-qoidalari o'ta qattiq ekanligidan insonparvarlik, yaratuvchilik mehnati bilan band kishilarning ijodiy

<sup>10</sup> 32. Ренессанс (Ўйғониш) – XIV-XVI асрларда Фарбий ва Марказий Еврупо мамлакатларининг маданий тараккиёти тарихидаги давр. Ўрта асрлар маданиятида гуллаб-яшнаган, инсоннинг бекиёс имкониятларига, акл-идроқи, иродаси, кобилиятларига ишонч руҳи билан суғорилган янги даврга ўтиш жараёни

erkinliklarida namoyon bo'ldi. Uni mashhur shoirning satrlarida, kulol kosaga chizgan zangori gullarda, kandakor birinj idishlarga o'yan bezaklarida yoki me'mor buniyod etgan ulug'vor masjid, nafis shiypon va boshqa inshootlarda ko'rish mumkin.<sup>11</sup>

Saltanatning asosiy siyosiy, iqtisodiy va madaniy markazi Samarcand bo'lib, uni bezatishga Temur alohida ahamiyat bergen, shahar hisori ham shunga yarasha edi. Temur muarrihlaridan birining yozishicha, u poytaxtni "Bag'oyat xushmanzara, jannatmonand yerda joylashgan Samarcandga ko'chiradi. Ajoyib dashtlari, go'zal daraxtzorlari, maftunkor inshootlari, so'lim kanallari bo'lgan bu beqiyos shahar - saltanatning noyob javohiri va boshqa shahar-u qishloqlar havas qilgudek maskanni (Temur) davlatni boshqaruv markaziga aylantirib poytaxt qildi, qal'a va hisor qurishni, ulug'vor inshootlar va tillakor saroylar buniyod etishni buyurdi".,

Temur huzuriga kelgan ispan elchisi R'yu Gonsales de Klavixoning "Kundaliklar"ida Samarcand qiyofasi ayniqsa yaqqol aks etadi. O'z davrining bu noyob hujjatida Yevropa Renessansi vakilining sinchkov ruhi bilan atrof borliqqa, shu jumladan musulmon Sharqiga nisbatan keng ko'lamdag'i qiziqish namoyon bo'ladi. "Samarkante shahri, - deb yozadi Klavixo, - tekislikda joylashgan va atrofi tuproq ko'tarma hamda juda chuqur xandaq bilan o'rabi olingan. U, (shahar devori bilan o'rabi olingan) ichki qismi (Ispaniadagi) Sevilya shahridan bir oz katta, shahar atrofida esa (unga) har tomondan yondoshib keluvchi turar joy binolari ko'p. Butun shahar bog'-rog'lar va uzumzorlar bilan o'rabi olingan. Shahar bog'lar qo'ynida joylashgan. Bu bog'lar o'rtasida ko'chalar o'tkazilgan, maydonlar bor, bu yerlarda juda ko'p aholi yashaydi, non, go'sht va ko'plab boshqa narsalar sotiladi. Ya'ni, ko'tarma orti (shaharning o'ziga) nisbatan gavjumroq. Shahar tashqarisidagi bu bog'larda ulkan va mashhur binolar ko'p, senor (Temur)ning o'ziga qarashli saroylar va asosiy yerto'la-omborlar bor. Undan tashqari, bu bog'larda nufuzli shaharlarning uylari va turli binolari bor. Shahar tevaragidagi bu bog'-rog'lar va uzumzorlar shu qadar ko'pki, guyo daraxtlari baland-baland o'rmonga yaqinlashib kelayotgandek bo'lsan, shahar esa uning o'rtasida joylashgan. Shahar orqali bu bog'larga ko'plab sug'orish kanallari o'tkazilgan... Shahar tashqarisida yotgan bepoyon tekislikda yirik qishloqlar ko'p, ularga podshoh o'zi bosib olgan boshqa yerlardan olib kelingan aholini joylashtirgan".<sup>12</sup>

Temur Samarcandi Afrosiyobdan Janubda, mo'g'ullar davridan oldingi ichki va tashqi shahar (shahri darun va shahri berun) o'rnida tarkib topa boshladi. Temur davrida hijriy 773 (milodiy 1371) yili bu maydonning hammasi qal'a devori va handaq bilan o'rabi olindi va uning g'arbiy qismidagi tabiiy tepalik ustida esa qal'a barpo etildi. Ushbu qal'a devorlarining qoldiqlari bizgacha yetib kelmagan, biroq, sodda va sirli koshin qoplangan minoralari saqlanib qolgan. Hirotdagi Ixtiyoriddin qal'asi bu to'g'rida bir qadar tasavvur beradi. Bir vaqtлari Samarcand qal'asining hatto qorovulkxona binosi ham hashamdar qilib bezatilgan, misol uchun darvoza tabaqlarini yetti xil ma'dan qotishmasidan quyilgan (Temur ularni ona shahri Shahr Sabzga olib ketgan). Temurning Samarcanddagi qal'asi shunchaki

<sup>11</sup> 32. Ренессанс (Уйғониш) – XIV-XVI асрларда Ғарбий ва Марказий Европо мамлакатларининг маданий тараккиёти тарихидаги давр. Ўрта асрлар маданиятида гуллаб-яшнаган, инсоннинг бекиёс имкониятларига, ақл-идроқи, иродаси, қобилиятларига ишонч руҳи вилан сугорилган янги даврга ўтиш жараёни

<sup>12</sup> 33. Де Клавихо Руи Гонсалес. Дневник путешествия а Самарканда ко двору Тимура (1403-1406). Пер. И. С. Мироковой, м., 1990, с. 138.

istehkom emas, balki avvalambor poytaxtning mustahkamlangan ma'muriy-harbiy markazi edi. Uning qudratli devori tashqarisida hukumatning asosiy qarorgohi bo'lgan Ko'ksaroy va chamasi, ancha xususiy harakterdagi Bo'ston saroy, g'azna, qurol-yarog' ustaxonalari va omborlari, devonxona joylashgan.

Bu vaqtga kelib Samarqand qiyofasi quyidagicha tarkib topgan.<sup>13</sup> Ilonizi devor maydon 500 hektarli Hisorni o'rab olgan. Shaharda oltita darvoza - shimolida Shayxzoda va Oxan, sharqida Fero'za, janubida So'zangaron va Korizgoh, g'arbida Chorsu darvozalari bor edi. Shahar markazi - Registon maydonidan nur shaklida tarqalib, bu darvozalarga cho'zilgan asosiy ko'chalar o'qday to'g'ri bo'lmay, burilishlari ko'p, gohida yirik mahallalarning tarixan vujudga kelgan ko'chalari bilan tutashib ketar edi.

XV asr boshdan-oyoq me'moriy san'atning yuksalishi davri bo'ldi, bu esa o'z navbatida hajmiy-fazoviy tuzilmalar yangicha timsolda rivojlanishiga yo'l ochdi. Temur davrida inshootlarning ko'lami ortishi ko'p jihatdan yakka hukmdorning irodasiga bog'liq bo'ldi, zotan, uning uchun shakl mahobatli bo'lishi Temurning qudrati va hokimiyatini ulug'lash vositasi edi. Ayni paytda bu jarayon muhandislar, me'morlar va bezak ustalari oldiga yangi-yangi vazifalar qo'yib, ularni amalga oshirishni talab qilardi. Ispaniyalik elchi Klavixoning guvohlik berishicha, Samarqandga kelib Go'ri Amir maqbarasining qurilishi bilan tanishganida Temur uning yuksakligidan qoniqmagan va binokorlar gumbazni shoshilinch ravishda qayta qurishga kirishib, uni ko'tarib turuvchi poy gumbazning balandligini yanada oshirishgan. O'shanda jome masjidining asosiy peshtoqi ham Temurga yetarlicha ulug'ver bo'lib ko'rinnagan va uni qayta qurishni buyurgan.<sup>14</sup>

Gumbaz tuzilishi ulug'ver inshootlarning me'morlari oldida vujudga kelgan mas'uliyatlari muhandislik vazifalaridan biri edi.<sup>15</sup> Temur davrida gumbazlar tuzilishi hanuz avvalgidek edi, faqat qirralar oralig'i kengaydi, xolos, gumbaz an'anaviy ravishda to'rt burchakli asosdan ravoq bagarlari sakkiz qirrali ravoqqa o'tadi. Ikki qavatli gumbazlar avvallari ham ma'lum bo'lgan, lekin bu paytda kelib, ichkaridan yoysimon qovurg'alarga tayangan tashqi gumbazni ko'tarib turuvchi poy gumbazning balandligi oshdi. Ulug'bek davridagi qurilishda esa gumbaz osti tuzilmalarining yangi xillarini izlash va ishlab chiqishga kirishildi.

Aniq fanlarning Ulug'bek homiyligi va ishtirokida kechgan yuksak taraqqiyoti me'morchilikda ham yaqqol namoyon bo'ldi. Bizgacha saqlanib qolgan yodgorliklar (Shohizinda, Ahmad Yassaviy, Go'ri Amir maqbaralari, Bibixonim masjidi, Ulug'bek madrasasi)ni o'rganish shuni ko'rsatdiki, uning old tomoni va ichki qiyofasi rejalarini tuzishda me'moriy shakllarning umumiyligi uyg'unligini belgilovchi handasaviy to'zilmalarning aniq o'zaro nisbati bor ekan.<sup>16</sup>

Temuriylar davridan avval ham, keyin ham, umuman, hech qachon Movarounnahr va Xuroson me'morchiligida me'moriy bezak bu qadar yuksak darajaga yetishmagan edi. Uning turlaridan va oldingi avlodlarning tajribasidan foydalangan holda ustalar texnik

<sup>13</sup> 34.Масон М. Е. Самарканд времени Улугбека, Звезда Востока, 1958, № 5.

<sup>14</sup> 36.Де Клавихо. Кўрсатилган асар, 135 б.

<sup>15</sup> 37.Засыпкин Б.Н. вып. 13. М., 1961, с. 119 сл., Пугаченкова Г.А. Зодчество Центральной Азии. 15 век. Ведущие тенденции и черты. Ташкент., 1976, с. 17 сл.

<sup>16</sup> 38. Булатов М.А. Геометрическая гармонизация в архитектуре. Средней Азии. X-XV вв. М., 1978, с 137. с

usullarni takomillashtiribgina qolmay, yangilarini ishlab chiqishdi, qolaversa, bezak mavzularini boyitishdi. Binoning old tomonida g'ishtli devorni silliqlab rangli va sirli koshinlardan qadama naqsh solish, yog'och, tosh va ganch o'ymakorligi, hoshiyalarini bezagan ko'p rangli parchinlar, naqshlarning ayrim qismlari va butun boshli pannolar, va nihoyat alohida sayqallangan koshinlardan ishlanuvchi yorqin naqshlar shu jumladan. Ichki ko'rinishda esa koshinlar chegarasidan boshlab to gumbaz markazigacha devoriy surat ishlangan: u ko'p rangli va oltinga boy yoki, aksincha, ayrim ranglar, misol uchun oq fondagi zangori naqshlar ustunlik qiladi. Yana, bularning bari eng yuksak texnik darajada ijro qilingan va aynan ana shu ijro, inson qo'lining vayron qiluvchi ta'siri yetib bormagan joylarda bu bezaklarning so'nmas chiroyini bizning kunlarimizgacha saqlab qolgan.

Temur va Ulug'bek davri me'morchiligi bezakda ko'p ranglikni va naqshga boylikni o'rganish shiori ostida kechdi.<sup>17</sup> Koshinkor bezakni qo'llashda ikkita bosqich ajralib turadi: biri XIV asrning o'rta qismini qamrasa, ikkinchisi XIV asr oxiri va XV asrning dastlabki yarmini o'z ichiga oladi. Birinchi bosqich uchun binoning old tomoni va ko'pincha ichiga ham boshdan-oyoq koshin qoplash odat bo'lgan. Ikkinchi bosqichda esa binoning old tomonida, g'ishtdan ko'tarilgan devorning bir xil rangli fonida peshtoq, ravoq, gumbaz va devor hoshiyasi kabi ayrim joylar tanlanib yorqin rang berilgan, gumbazlar tiniq zangori rangda bo'lgan.

Naqshning esa mo'g'ullardan oldingi davrdagidek uch xil - handasaviy, o'simlisimon va epigrafik (tosh, ma'dan, sopoldagi bitiklar) turi xanuz yonma-yon kelar, lekin endi uslublari o'zgacha edi. Xandasaviy naqsh birinchi bosqichda alohida hoshiyalar va mo'jaz pannolarni to'ldirgan bo'lsa, ikkinchi bosqichda devorlar va minoralarning keng satxini bezatishda qatnasha boshladi.

Xandasaviy naqshga nihoyatda yaqinlashtirilgan "kufiy" xati ulug'vor devoriy girixlarda, shuningdek, moy gumbazlarni gir aylantirib o'rab olgan yozuvlarda qo'llangan. Hoshiya peshtoq bitiklarida birinchi bosqichda kitob hattotligiga yaqin bo'lgan "devoniy" xati qo'llangan, keyin esa "suls" xati yetakchi o'rin egalladi, chunki unga chiziqlar uzunligi, tik harflar (alif, kof, lom) chiziqligi va harflarning ikki-uch qator joylashuvi xos. Bitiklar odatda ko'k fonda oq harflar bilan yozilgan, ba'zan ustidan oltin suvi yuritilgan, ko'pincha unga parallel ravishda unchalik baland bo'lмаган kufiy xatida sariq satr chizilgan. Yirik spiralsimon novdadan yaproqlar va gullar taralib turgan shakl "suls" xati uchun fon bo'lib xizmat qilgan.

Temuriylar saltanatining Samarcand, Hirot kabi markazlarida kundunavislarning bino old tomoni va ichki qismi uchun bitiklar nusxasini tayyorlash bo'yicha maxsus ustaxonalari bo'lgan, keyin bu yozuvlar toshga, daraxtg'a, o'yma bezak va devorga ko'chirilgan. Bu ustalarning nomi bizgacha qariyb yetib kelmagan, lekin, har qalay, Samarcanda Temurning xotini Tuman og'a 1405 yillarda qurdirgan Shohizinsa majmuasining yuqorisida hattot Hoji Bangir Tabriziyning nomi uchraydi. Koshin qoplamlarda tasviriy mavzu nihoyatda kam uchraydi. Temurning Shahrisabzdagi saroyi

<sup>17</sup> 39.Ремпель Л.И. Архитектурный орнамент Узбекистана. История развития и теория построения. Ташкент, 1961, с. 256. сл.

Oqsaroy peshtoqlarida sher bilan quyoshning just tasvirlari uchraydiki, bu sof ramziy mavzudir.

Temur va Ulug'bek davrining hashamatli me'morlarning hashamatli binolar ichining bezagi ham benixoya boy va xilma-xil edi. Bu o'rinda koshinlar axyon-axyonda saxn va mexrob qoplamasida ishlatilgan xolos. Devor va shift, hatto gumbaz ham naqsh bilan ziynatlangan. Temur davri inshootlarida ko'k va zarxal ranglar ustun bo'lgan dabdabali naqsh hukmron edi, Ulug'bek davrida esa o'sha kezlari rasm bo'lgan xitoy chinnisiga taqlidan oq fondagi ko'k naqsh ommalashdi.

Ayrim yodgorliklardagi bitiklar bir qator buyuk me'morlar va me'moriy bezak ustalarining nomini bizgacha saqlab qolgan, ularning nisbasi, ya'ni tugilgan joyini ko'rsatuvchi taxalluslari esa nihoyatda ulkan hududni qamrab oladi.<sup>18</sup> Chunonchi, Turkiston (janubiy Qozog'iston)da hijriy 800 yili (milodiy 1387-88 yillarda) bunyod etilgan Xoja Axmad Yassaviy maqbarasining bosh me'mori Shams Abdulkaxob Sherazi bo'lgan, sherozlik yana bir usta Hoji Xasan esa uning koshinkori bezaklarini bajargan. Bu yerda yana usta Iziddin bin Tojiddin Isfaxoniy tayyorlagan shamdonlar, "birinj ko'yish mu'jizasi" - Abdulaziz bin Sharofuddin Tabriziy qo'yan ulkan qozon singari eng yuksak badiiy sifatlarga ega bo'lgan marosim buyumlari ham bor edi. Ko'rinish turibdiki, bu go'zal yodgorliklarning asosiy ijodkorlari Eronning bosh shaharlaridan bo'lib, hukmdorning irodasi bilan tug'ilgan joyidan minglab kilometr olib keligan ustalar edi. Koshinkori naqsh bo'yicha tabrizlik usta Muhammad Yusuf Temurning Shahrisabzdagi saroyi peshtoqini bezadi (786/1385). Samarqanddagagi Muhammad Sulton xonaqosi va madrasasi majmuasining (1404 yilgacha qurib bitirilgan) bosh peshtoqida usta Muhammad ibn Maximud Isfaxoniyning nomi uchraydi. Buxorodagi Ulug'bek madrasasida (830/1417) isfaxonlik yana bir usta Ismoil ibn Tohirning nomi saqlanib qolgan. Yog'och o'ymakori Yusuf Sherazi Samarqanddagagi Shohizinda majmuasida masjid eshigini naqsh bilan bezagan (507/1404-1405).

Biroq Temur va Ulug'bek davridagi asosiy inshootlarni bunyod etgan ko'plab ustalarning nomi bizgacha yetib kelmagan. Yuqoridagi ro'yxatda faqat eronlik ustalarning nomi uchraganini tasodif deyish mumkin, xolos. Vaxolanki, ular bo'm-bo'sh joyga kelishmagandi. Samarqanddagagi Shohizinda majmuasining ayrim yodgorliklarida uchraydigan bitiklar guvohlik berishiga qaraganda, Temur g'arbga yurishlaridan oldingi davrda bu zaminning o'z me'moriy maktabi va bezak ustalari bo'lgan. Ayrim ustalarning nomidagi nisbada Movarounnahr shaharlari uchraydi, boshqalarida esa bunday emas, chunki ular samarqandlik ustalardir, o'z shahrida shu yerda tug'ilganini ko'rsatish rasm bo'lmasligi. Xoja Axmad maqbarasidagi (XIV asrning ikkinchi yarmi) Faxri-Ali, Shodimulk maqbarasidagi (773/1373) Badriddin va Shamsiddin, shuningdek, bu maqbarani bezatishda qatnashgan uchinchi usta Zayniddin Buxoriyning nomlari shu jumladandir. Majmuaning o'rta qismidagi nomsiz maqbarada usta Ali va Alim (balki bir kishidir?) Nasafiyalar nomlari ko'rsatilgan. Shuningdek, Temurning bosh bog'boni, mahalliy nabototni yaxshi bilgan Shahobiddin Ahmad Zardakashiy ham samarqandlik bo'lgan ko'rindi. Aynan shu hol -

<sup>18</sup> 40.Пугаченкова Г.А. Садова-парковое искусство Средней Азии в эпоху Тимура и тимуридов. Тр. САГУ. История. Новая серия. Вип. 23. ташкент, 1951, с. 125.

mahalliy va chetdan kelgan ustalarning o‘zaro ijodiy ta’siri Temur davri me’morchiligidan yangi uslubni vujudga keltiradi, u esa buyuk sultanatning barcha chekkalaridan to‘plangan ustalarning bilimi va ijodiy salohiyatini o‘zida jamladi. Asirlikdagi hayot nechog‘li mashaqqatli bo‘lmashin, me’morlar oldiga qo‘yilgan vazifalarning ulug‘ligi va ularni amalgamashirish imkoniyati mavjudligi ijodkor sifatida ularni ilhomlantirmay qolmasdi.

Xulosa o’rnida aytadigan bo‘lsak Amir Temur va Temuriylar davri me’morchiligi avvalgi davrdan ko‘p narsa olgani holda o‘z taraqqiyotining yangi yuqori bosqichiga ko‘tarildi. Fikrimizni Temuriylar davridan avval ham, keyin ham, umuman, hech qachon Movarounnahr va Xuroson me’morchiligidida me’moriy bezak bu qadar yuksak darajaga yetishmaganligi bilan izohlasak bo‘ladi. Bu davr me’morchilik namunalari o‘zining so’nmas chiroyini bizning kunlarimizgacha saqlab kelayotgani bejiz emasdir.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. Ренессанс (Уйғониш) – XIV-XVI асрларда Фарбий ва Марказий Еврупо мамлакатларининг маданий тараққиёти тарихидаги давр. Ўрта асрлар маданиятида гуллаб-яшнаган, инсоннинг бекиёс имкониятларига, ақл-идроқи, иродаси, қобилиятларига ишонч руҳи ғилан сугорилган янги даврга ўтиш жараёни.
2. Де Клавихо Руи Гонсалес. Дневник путешествия а Самарканда ко двору Тимура (1403-1406). Пер. И. С. Мироковой, м., 1990, с. 138.
3. Масон М. Е. Самарканд времени Улугбека, Звезда Востока, 1958, № 5.
4. Засыпкин Б.Н. вып. 13. М., 1961, с. 119 сл., Пугаченкова Г.А. Зодчество Центральной Азии. 15 век. Ведущие тенденции и черты. Ташкент., 1976, с. 17 сл.
5. Булатов М.А. Геометрическая гармонизация в архитектуре. Средней Азии. Х-XV вв. М., 1978, с 137. с
6. Ремпель Л.И. Архитектурный орнамент Узбекистана. История развития и теория построния. Ташкент, 1961, с. 256. сл.
7. Пугаченкова Г.А. Садова-парковое искусство Средней Азии в эпоху Тимура и тимуридов. Тр. САГУ. История. Новая серия. Вип. 23. ташкент, 1951, с. 125.